

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№12

2025
dekabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 44 sahifa.
2025-yil, dekabr*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLİYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinovna	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
Turayeva Gulizahro	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQRISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	



RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJIRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQUARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA



Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti

ORCID: 0009-0007-2206-3466

E-mail: xitman9405@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va AQSh kabi rivojlangan davlatlarda kichik korxonalarda ishlab chiqarishni samarali tashkil etish bo'yicha ilg'or yondashuvlar tahlil qilinadi hamda ushbu modellar asosida Namangan viloyati uchun samarali boshqaruv mexanizmlari ishlab chiqiladi. Tadqiqot davomida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etish, sifat menejmenti tizimlaridan foydalanish kabi yo'nalishlar chuqur o'rganildi. Olingan natijalar Namangan viloyatidagi kichik korxonalar faoliyatida menejment madaniyatini rivojlantirish, texnologik modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirish hamda resurslardan tejamkor foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi. Maqolada ilgari surilgan takliflar kichik biznesning raqobatbardoshligini kuchaytirishga va hududning iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, kichik korxonalar, ishlab chiqarish jarayoni, rivojlangan davlatlar tajribasi, Namangan viloyati, innovatsion texnologiyalar, raqamli boshqaruv, Lean management, samaradorlik.

Abstract. This article analyzes advanced approaches to organizing efficient production in small enterprises in developed countries such as Germany, Japan, South Korea, and the United States. Based on the international models studied, recommendations for improving management practices in small enterprises in the Namangan region are proposed. The study explores the optimization of production processes, the integration of innovative and digital technologies, and the implementation of quality management systems. The findings demonstrate that enhancing managerial culture, accelerating technological modernization, and ensuring efficient resource utilization can significantly improve production performance in small enterprises. The proposed measures aim to strengthen the competitiveness of small businesses and support the sustainable economic development of the Namangan region.

Keywords: small business, small enterprises, production organization, experience of developed countries, Namangan region, innovative technologies, digital management, Lean management, efficiency.

Аннотация. В статье анализируется опыт развитых стран, таких как Германия, Япония, Южная Корея и США, в организации эффективного производства на малых предприятиях. На основе изученных моделей разработаны рекомендации по совершенствованию системы управления малыми предприятиями Наманганской области. В исследовании рассмотрены вопросы оптимизации производственных процессов, внедрения инновационных и цифровых технологий, а также применения систем управления качеством. Полученные результаты показывают, что повышение управленческой культуры, ускорение технологической модернизации и рациональное использование ресурсов позволяют существенно повысить эффективность производства на малых предприятиях региона. Представленные рекомендации направлены на укрепление конкурентоспособности малого бизнеса и повышение экономического потенциала Наманганской области.

Ключевые слова: малый бизнес, малые предприятия, организация производства, опыт развитых стран, Наманганская область, инновационные технологии, цифровое управление, Lean management, эффективность.



KIRISH

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik zamonaviy iqtisodiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, bandlik darajasi va innovatsion faolligini ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik korxonalar ishlab chiqarish jarayonini to'g'ri tashkil etish, resurslardan oqilona foydalanish, moslashuvchan boshqaruv modellari va innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali yuqori samaradorlikka erishadi. Shu bois, bunday ilg'or amaliyotlarni o'rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda Namangan viloyatida kichik biznesning jadal rivojlanayotgani kuzatilmoqda. Hududda ishlab chiqarish ko'lamining kengayishi, yangi korxonalarning tashkil etilishi va investitsiyaviy faollikning ortishi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, kichik korxonalarda ishlab chiqarishni samarali tashkil etish bo'yicha ayrim tizimli masalalarning mavjudligi modernizatsiya jarayonlarini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Xususan, texnologik yangilanish sur'atlarining yetarli emasligi, ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirishdagi nomuvofiqliklar, zamonaviy boshqaruv metodlaridan to'liq foydalanilmasligi va resurslardan foydalanish samaradorligining pastligi kabi omillar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi.

Rivojlangan davlatlar — Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va AQSh iqtisodiyotida kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlashning maxsus mexanizmlari, zamonaviy boshqaruv modellari, klasterlashuv, lean-production, kaizen, raqamli boshqaruv tizimlari kabi ilg'or tajribalar keng qo'llanadi. Ushbu tajribalarni o'rganish va Namangan viloyati kichik korxonalarda joriy etish imkoniyatlarini aniqlash hudud iqtisodiyotini modernizatsiya qilish jarayonida muhim o'rin tutadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — rivojlangan davlatlarda kichik korxonalarda ishlab chiqarishni samarali tashkil etish modellari va yondashuvlarini chuqur tahlil qilish hamda ularni Namangan viloyati sharoitlariga moslashtirishning amaliy imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi, ayniqsa, O'zbekistonda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kichik korxonalarni raqobatbardosh qilish, mahalliy bozorni yuqori sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash va eksport salohiyatini kengaytirish zaruriyati bilan belgilanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik korxonalar rivoji bo'yicha ilmiy izlanishlar xalqaro miqyosda keng o'rganilgan bo'lib, ularning iqtisodiyotdagi o'rnini ko'plab tadqiqotlarda asoslab berilgan. P. Drucker kichik biznesni innovatsion rivojlanishning "asosiy dvigateli" sifatida baholab, undagi moslashuvchan boshqaruv, tezkor qaror qabul qilish va bozor talabiga moslashuvchanlikni muhim ustunliklar sifatida ta'kidlaydi [1]. Uning fikricha, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda inson kapitaliga investitsiya kiritish kichik korxonalarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

Yaponiyada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda, xususan M. Imai tomonidan ishlab chiqilgan kaizen konsepsiyasi ishlab chiqarishda uzluksiz takomillashtirish tamoyillari samaradorlikni sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi [2]. Toyota ishlab chiqarish tizimi asoschisi T. Ohno tomonidan ishlab chiqilgan lean production modeli esa resurslardan tejamkor foydalanish, yo'qotishlarni minimallashtirish va jarayonlarni soddalashtirish bo'yicha dunyo miqyosida eng samarali metodologiyalardan biri hisoblanadi [3].

Germaniya iqtisodiyotida kichik va o'rta biznesning mashhur Mittelstand modeli alohida ilmiy e'tiborga sazovor. H. Simon mazkur modelning raqobatbardoshligi, innovatsion yo'nalishi va eksportga orientatsiyalanganligini chuqur tahlil qilib, uni Yevropadagi eng muvaffaqiyatli boshqaruv tizimlaridan biri sifatida baholaydi [4]. Ushbu modelning asosiy xususiyatlari — davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlash, sanoat va ta'lim integratsiyasining yuqori darajasi, korxonalarning innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan strategik yondashuviga asoslanadi.

Janubiy Koreya kichik biznesining transformatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar, xususan L. Kim tomonidan o'rganilgan "texnologik ta'lim va innovatsiyalar" modeli, kichik korxonalar rivojida texnologik modernizatsiya, startup ekotizimi va ilmiy-texnik salohiyatning alohida ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi [5]. Ushbu yondashuv Koreyada ishlab chiqarish samaradorligining sezilarli oshishiga xizmat qilgan.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham kichik biznesning iqtisodiyotdagi roli, ishlab chiqarishni tashkil etish jarayonlari va modernizatsiya masalalari keng yoritilgan. A. Vahobov, B. Xodiev va Sh. Abdug'aniev o'z tadqiqotlarida O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesning o'rnini, texnologik yangilanish zaruriyati va zamonaviy boshqaruv modellari bo'yicha chuqur ilmiy xulosalar taqdim etgan [6]. Ular resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini qayta tashkil etish, logistika tizimini optimallashtirish va boshqaruvning ilg'or yondashuvlarini joriy etishning ijobiy ta'sirini asoslab bergan.



Namangan viloyati misolida olib borilgan iqtisodiy-amaliy tadqiqotlar hududdagi kichik korxonalarda ishlab chiqarishni samarali tashkil etish bo'yicha mavjud bo'lgan imkoniyatlar bilan bir qatorda, takomillashtirilishi kerak bo'lgan yo'nalishlarni ham ko'rsatadi. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hisobotlarida kichik korxonalarning texnologik modernizatsiyaga bo'lgan ehtiyoji, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish zarurati hamda kadrlar malakasini oshirishga oid imkoniyatlar alohida qayd etiladi [7]. Hudud bo'yicha olib borilgan boshqa ilmiy tadqiqotlar ham innovatsion boshqaruv, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va investitsiyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish muhimligini ta'kidlaydi [8].

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar rivojlangan davlatlar tajribasida kichik korxonalarni rivojlantirishda umumiy tamoyillar mavjudligini ko'rsatadi: raqamlashtirish, innovatsion boshqaruv, resurslardan samarali foydalanish, xodimlar malakasini doimiy oshirish va davlat tomonidan tizimli qo'llab-quvvatlash. Ushbu yondashuvlar Namangan viloyatidagi kichik korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda rivojlangan davlatlar — Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va AQShning kichik korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha ilg'or tajribalari qiyosiy tahlil metodlari asosida o'rganildi. Metodologiya sifatida kontent-tahlil, tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, ekspert suhbatlari hamda Namangan viloyatidagi kichik korxonalar faoliyati bo'yicha mavjud statistik ma'lumotlar tahlili qo'llanildi. Xorijiy adabiyotlarda keng qo'llaniladigan "lean production", "kaizen", "Mittelstand", "Just-in-Time" kabi boshqaruv modellari konseptual jihatdan baholanib, ular Namangan viloyatining sanoat infratuzilmasi va korxona tuzilmasiga moslashtirish imkoniyatlari nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Tadqiqotning amaliy qismi Namangan viloyatidagi kichik korxonalar rahbarlari va mutaxassislari bilan o'tkazilgan suhbatlar, kuzatuvlar va ekspert fikrlari asosida shakllantirildi. Olingan ma'lumotlar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda menejment madaniyatini rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot davomida rivojlangan davlatlar — Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va AQShning kichik korxonalarda ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha ilg'or tajribalari chuqur tahlil qilindi hamda ularning Namangan viloyati sharoitiga moslashuv imkoniyatlari baholandi. Olingan natijalar quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirishga imkon berdi.

Birinchidan, ishlab chiqarishni samarali tashkil etishda lean production, kaizen, Mittelstand, raqamli boshqaruv tizimlari va xodimlar malakasini uzluksiz oshirish kabi tamoyillar rivojlangan davlatlarda kichik korxonalar muvaffaqiyatining asosiy omillari ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuvlar resurslardan tejamkor foydalanish, jarayonlarni optimallashtirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va mehnat unumdorligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Namangan viloyati korxonalari o'tkazilgan suhbatlar va monitoringlar mavjud potentsialdan samarali foydalanish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatdi, biroq ilg'or metodlarning aksariyati hali to'liq joriy etilmagan.

Ikkinchidan, Namangan viloyatidagi kichik korxonalar faoliyati tahlili ishlab chiqarish jarayonlarida texnologik yangilanish bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini ko'rsatdi. Moddiy-texnik bazaning ayrim segmentlarida modernizatsiyaga ehtiyoj mavjud bo'lsa-da, bu jarayonning rivojlanish imkoniyatlari yuqori. Boshqaruvda an'anaviy yondashuvning ustunligi hamda raqamli hisob-kitob tizimlarining yetarli darajada joriy etilmagani korxonalar samaradorligini yana-da oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini anglatadi. Logistika va ta'minot zanjirlaridagi kamchiliklar ham takomillashtirishni talab qiluvchi yo'nalishlar sifatida qayd etildi.

Uchinchidan, tahlillar kichik korxonalarda ishlab chiqarishni samarali tashkil etish uchun xodimlar malakasi va ishlab chiqarish madaniyatini oshirish muhim omil ekanini tasdiqladi. Rivojlangan davlatlar tajribasida inson kapitaliga investitsiya — muntazam treninglar, kasbiy tayyorgarlik va motivatsiya tizimlari — yuqori samaradorlikning asosiy garovi sifatida qaraladi. Namangan viloyatida o'tkazilgan so'rov natijalari malaka oshirish bo'yicha tadbirlarni kengaytirish zarurligini ko'rsatdi, bu esa ishlab chiqarish madaniyatini va samaradorlikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, Namangan viloyatining mavjud infratuzilmasi, mahalliy xomashyo zaxiralari va qulay geografik joylashuvi kichik korxonalar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Rivojlangan davlatlar tajribasi ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish uchun ishlab chiqarishni rejalashtirish, sifat menejmenti, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va raqamli monitoring tizimlarini qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Hudud sharoitida lean tizimi, modulli ishlab chiqarish, klasterlashuv va kooperatsiya zanjirlarini rivojlantirish eng istiqbolli yo'nalishlar sifatida aniqlangan.

Beshinchidan, davlat tomonidan yaratilayotgan imtiyozlar va qo'llab-quvvatlash dasturlari kichik korxonalar salohiyatini kengaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqot davomida ushbu mexanizmlarning amaliyotda qo'llanishini yanada uyg'unlashtirish, korxonalarning real ehtiyojlariga moslashuv darajasini oshirish va axborot yetkazib berish tizimini takomillashtirish bo'yicha imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi. Rivojlangan davlatlar tajribasida davlat qo'llovi innovatsion, eksportga yo'naltirilgan va texnologik kichik korxonalarni strategik rivojlantirishga qaratilgani bu borada samaradorlikni oshiruvchi muhim omil sifatida baholanadi.

Yakuniy tahlillar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlar tajribasini Namangan viloyati kichik korxonalarga moslashtirish orqali mehnat unumdorligini 15–25%, ishlab chiqarish xarajatlarini 10–18%, mahsulot sifatini esa 20% gacha oshirish imkoniyati mavjud. Bu esa hududning sanoat salohiyatini mustahkamlash va raqobatbardosh iqtisodiy modelni shakllantirishda muhim turtki bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'rganish jarayonida aniqlanishicha, rivojlangan davlatlar — Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya va AQShning kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha ilg'or amaliyotlari Namangan viloyati uchun yuqori darajada moslashtirilishi mumkin bo'lgan samarali boshqaruv va ishlab chiqarish modellari bilan ajralib turadi. Ushbu davlatlarda kichik korxonalar strategik rejalashtirish, resurslardan tejamkor foydalanish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, sifat menejmenti tizimlarini qo'llash hamda davlat-xususiy sektor hamkorligiga asoslangan kompleks rivojlantirish siyosati orqali raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga erishgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyatidagi kichik korxonalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun, birinchi navbatda, menejment madaniyatini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasini oshirish, xodimlar malakasini takomillashtirish va innovatsion faoliyatni kengaytirish zarur. Rivojlangan davlatlar tajribasi asosida moslashtirilgan model resurslarni tejovchi texnologiyalarni, Lean management, Kaizen, Just-in-Time kabi tizimlarni bosqichma-bosqich tatbiq etish orqali mavjud ishlab chiqarish quvvatidan samarali foydalanish imkoniyatini ta'minlaydi.

Shuningdek, o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, Namangan viloyatida kichik biznes infratuzilmasi yetarli shakllangan bo'lsa-da, bilim va texnologiya transferi, innovatsion grant dasturlari, texnoparklar bilan integratsiya jarayonlarini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Rivojlangan davlatlar amaliyoti asosida ishlab chiqilgan takliflar ishlab chiqarishni optimallashtirish, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ulushini ko'paytirish va hudud iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari rivojlangan davlatlar tajribasini mahalliy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirilgan holda joriy etish Namangan viloyati kichik korxonalarda ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, samaradorlikni oshirish va hududning iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishda muhim omil bo'la olishini tasdiqlaydi. Shuningdek, o'rganilgan ilmiy manbalar va amaliy tahlillar xorij tajribasidan samarali foydalanish kichik korxonalar rivojida yuqori natijalarga erishish uchun strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Drucker, P. Innovation and Entrepreneurship. New York: Harper Business, 1985-yil.
2. Imai, M. Kaizen: The Key to Japan's Competitive Success. New York: McGraw-Hill, 1986-yil.
3. Ohno, T. Toyota Production System: Beyond Large-Scale Production. Portland: Productivity Press, 1988-yil.
4. Simon, H. Hidden Champions of the 21st Century. Berlin: Springer, 2009-yil.
5. Kim, L. The Dynamics of Technological Learning in Industrialization. Washington, DC: World Bank, 1997-yil.
6. Vahabov, A., Xodiev, B., Abdug'aniev, Sh. O'zbekiston iqtisodiyotida kichik biznesni rivojlantirish masalalari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2020-yil.
7. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. Namangan viloyatida kichik biznes rivoji bo'yicha tahliliy hisobot. Toshkent, 2021-yil.
8. Abdurahmonov, Q. Kichik biznesda boshqaruv samaradorligi va innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Fan, 2019-yil.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100